TOSHKENT VILOYATI OHANGARON TUMANI HOKIMI QARORI

2022 - yil 5 - oktabr 511-10-134-Q/22 Ohangaron tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi *(O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasningi, 2020-yil 642-son, 39-modda)* va “O‘zbekiston Respublikasida Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunlari *(O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2020-yil 641-son, 43-modda),* Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomi, shuningdek, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2023-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarorining 2-bob, 6-bandiga asosan, ish o‘rinlarining belgilanadigan eng kam sonining jami soni tuman hokimining qaroriga muvofiq tashkilotning ro‘yxatidagi xodimlari o‘rtacha soni 157 kishini tashkil etadigan 10 foizgacha miqdorida, shu jumladan:

- 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 25 foiz *(40 kishi)*;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 56 foiz *(88 kishi)*;

- safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 4,4 foiz *(7 kishi)*;

- nogironlar uchun 3,1 foiz *(5 kishi)*;

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 5,7 foiz *(9 kishi);*

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 5 foiz *(8 kishi);*

- atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan, ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 0 foiz *(0 kishi)*;

- odam savdosida jabrlangan shaxslar uchun 0 foiz *(0 kishi).*

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2022-yil yakunlaridan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi, 2023-yilning 10 aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish *(ajratish yoki band qilib qo‘yish)* to‘g‘risidagi, ya’ni, har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimida ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari, ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shahslar uchun ish joylarini ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-avgustdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 186-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq, belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini *(ajratilishini yoki band qilib qo‘yishini)* hamda ish joylari sanitariya-gigiyena

normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar raxbarlari, Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi yo‘llanmasi bilan yuborilgan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni asosiy ish o‘rinlariga ishga qabul qilinsinlar.

6. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 15-bandiga muvofiq jarima solinishi eslatilsin.

7. Ohangaron tumani Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (A.Uralov), O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B son buyrug‘iga *(Adliya vazirligi tomonidan №3163-son bilan 31.05.2019-yilda ro‘yxatga olingan)* asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilgan, Ijtimoiy extiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida eng kam oylik ish haqining 2 barobari miqdorida haq to‘lash choralarini ko`rsin.

8. Mazkur qaror 5 kun muddatda kvota ish o‘rinlari belgilangan korxona tashkilot va muassasalar raxbarlariga yetkazilsin.

9. Ohangaron tuman hokimining 2021-yil 17-noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 212-10-134-Q/21-sonli qarori 2022-yilning 31-dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Azamatov va tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori A.Uralov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdullayev**

Ohangaron tuman hokimining
2022 yil 5 oktabrdagi
511-10-134-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Ohangaron tumanida 2023 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band (kvota) qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida MA’LUMOT

№	Tuman (shahar) nomi	Ish o‘rini zaxiralash belgilangan korxona tashkilot nomi	Korxona tashkilot STIR (STIR aniq bo‘lishi shart)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar soni	Jami zaxiralanishi belgilangan ish o‘rinlarining soni	Shundan:							
						14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun
1	Ohangaron tumani	OHANGARON TUMANI OBODONLASHTIRISH BO'LIMI	207061230	228	9	1	1	1	1	2	3		
2	Ohangaron tumani	YANGI ANGREN ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI aksiyadorlik jamiyati	200595838	1 696	15		15						
3	Ohangaron tumani	Ohangaron tuman tibbiyot birlashmasi	200609524	832	31	14	14		1	2			
4	Ohangaron tumani	Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "ANGREN SHAKAR" xorijiy korxonasi	207155445	727	7	2	2	2	1				
5	Ohangaron tumani	"EYVALEK MAXSUS TEMIR BETON" aksiyadorlik jamiyati	200608454	730	27	8	12	2	1	2	2		
6	Ohangaron tumani	OHANGARON TUMANI SANITARIYA EPIDEMIOLOGIYA OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO'LIMI	200465190	53	4	2	2						

7	Ohangaron tumani	"LAZIZ" ma‘suliyati cheklangan jamiyati	201321805	196	14	3	4	2		2	3		
8	Ohangaron tumani	Ohangaron tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	200609438	24	2	1	1						
9	Ohangaron tumani	Toshkent Viloyati Fiziterapiya va Pulmonologiya Shifoxonasi	206965103	350	5	1	2		1	1			
10	Ohangaron tumani	Ohangaron tuman 1-son kasb-hunar maktabi	204214420	61	3	1	2						
11	Ohangaron tumani	Ohangaron tuman 2-son kasb-hunar maktabi	206921403	79	3	1	2						
12	Ohangaron tumani	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914474	31	2		2						
13	Ohangaron tumani	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	306854095	45	2		2						
14	Ohangaron tumani	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914521	46	3		3						
15	Ohangaron tumani	14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914592	57	2		2						
16	Ohangaron tumani	35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914807	39	2		2						
17	Ohangaron tumani	41-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206911874	41	2		2						
18	Ohangaron tumani	45-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914901	43	2		2						
19	Ohangaron tumani	47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914925	36	2		2						
20	Ohangaron tumani	48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914933	33	2		2						
21	Ohangaron tumani	51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206914964	46	2		2						
22	Ohangaron tumani	52-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206910733	111	4		4						
23	Ohangaron tumani	19-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	308905014	30	2	1	1						

24	Ohangaron tumani	20-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207011442	79	2	1	1						
25	Ohangaron tumani	21-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207011514	55	2	1	1						
26	Ohangaron tumani	23-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	309305768	22	2	1	1						
27	Ohangaron tumani	24-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	309167742	24	2	1	1						
28	Ohangaron tumani	26-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	309167884	21	2	1	1						
jami				**5735**	**157**	**40**	**88**	**7**	**5**	**9**	**8**		